



XORAZMIY VA UNING “MUHABBATNOMA” ASARI TAHLILI

Abdurahimova Ruhshonaxon Abdusalimjon qizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Ijtimoiy gumanitar va pedagogika fakulteti

Filologiya va Tillarni o‘qitish o‘zbek tili 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma” nomli asari tahlil qilinadi. Asarning janr xususiyatlari, asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi, badiiy tili va uslubiy jihatlari yoritiladi. “Muhabbatnoma” o‘zbek adabiyotidagi ilk epistolyar (muktublar shaklidagi) lirik dostonlardan biri sifatida o‘rganiladi. Maqolada asarning tarixiy-adabiy ahamiyati va Xorazmiyning o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Xorazmiy, Muhabbatnoma, epistolyar janr, o‘zbek adabiyoti, masnaviy, badiiy tahlil, lirik qahramon, sadoqat, sevgi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining rivojida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan ijodkorlardan biri bu — Xorazmiydir. Uning adabiy merosi ichida alohida o‘rin egallagan “Muhabbatnoma” asari, bir tomondan, lirik asar sifatida, ikkinchi tomondan esa — epistolyar janrdagi noyob namunadir. Ushbu maqolada asarning janriy va badiiy xususiyatlari, til va uslub, obrazlar tizimi, shuningdek, tarixiy-adabiy ahamiyati chuqur tahlil etiladi.

Sharq adabiyotida o‘zining yuksak iste’dodi va badiiy mahorati bilan munosib o‘rin egallagan taniqli shoir Xorazmiy – bizning ajdodlarimizdan biri bo‘lib, bu holat har bir kishida faxr va g‘urur uyg‘otadi. Afsuski, shoir haqida tarixiy manbalarda juda oz ma’lumot saqlanib qolgan. Uning hayoti va shaxsiyati haqida asosiy ma’lumotlarni “Muhabbatnoma” asarining muqaddima va xotima qismidan topish mumkin.

Shoir o‘zining taxallusi orqali Xorazm viloyatida tug‘ilganini anglatgan. U turkiy adabiyotda nomanavislik an’anasini boshlab bergen muhim shaxs sanaladi.



Xorazmiy nafaqat turkiy, balki fors-tojik tilida ham nihoyatda ravon va mohirona ijod qilgan, o‘z davrining ilg‘or shoirlaridan biri bo‘lgan.

Xorazmiy XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida yashagan. Shoirning hayoti haqida aniq ma’lumotlar kam bo‘lsa-da, uning “Muhabbatnoma” asari orqali adabiyotda munosib o‘rin egallagani ayon bo‘ladi. U o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib epistolyar janrda sevgi mavzusini yuksak badiiy darajada ifodalagan.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarining yuzaga kelishiga forsiy tilda ijod qilgan Avhadiy Marog‘aviy tomonidan yozilgan “Muhabbatnoma” dostonining kuchli ta’siri bo‘lgan. Bu ikki asar o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri — ularning shakliy tuzilishidadir. Avhadiy o‘z asarida maktublarni oshiq hamda ma’shuqaning nomidan yozgan bo‘lsa, Xorazmiy asarida esa barcha maktublar oshiq tomonidan ma’shuqasiga murojaat tarzida yozilgan she’riy shakldagi xat shaklida keltirilgan.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarining hozirgi kungacha ma’lum bo‘lgan ikki qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ularning biri uyg‘ur yozuvida, ikkinchisi esa arab yozuvida bitilgan. Uyg‘ur yozuvidagi qadimiyroq nusxa hozirda Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Mazkur nusxa 1432-yil mart oyida Eronning Yazd shahrida, Hirot hokimi Shohruxning sarkardasi Mir Jaloliddinning topshirig‘i bilan Bakir Mansur tomonidan ko‘chirilgan. Bu nusxada o‘nta nomadan iborat matn keltirilgan.

Asar 11 ta maktub shaklida yozilgan bo‘lib, har bir maktubda oshiq yigitning sevgilisi — ma’shuqasiga bo‘lgan sadoqati, ichki iztiroblari, orzu-armonlari lirik ifodada bayon etiladi. Shoир insoniy tuyg‘ularni chuqur tahlil qilgan holda, o‘quvchini ruhiy jihatdan ta’sirlantiradi. Asar sevgi orqali poklanish, fidoyilik va vafodorlik g‘oyalarini ilgari suradi.

“Muhabbatnoma” masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, epistolyar janrga mansub. Bu jihat bilan u o‘zbek adabiyotidagi ilk epistolyar she’riy asarlardan biri sanaladi. Har bir maktub poetik shaklda ifodalangan bo‘lib, ularning har biri yakka-yakka lirik obraz sifatida qabul qilinadi. Shoirning badiiy tasvir vositalari — tashbeh, istiora, mubolag‘a, tajnis kabi san’at vositalari keng qo‘llangan.

Xorazmiy asarda o‘zbek tilining boy leksik imkoniyatlaridan keng foydalangan. Uning tili nafis, obrazli va musiqiy ohangdorlikka boy. Har bir misra



ohang, ritm va mazmun uyg‘unligida yaratilgan. Bu esa o‘quvchining his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir etadi.¹

“Muhabbatnoma” asari 364 baytdan iborat bo‘lib, ushbu asarning arab yozuvidagi yana bir nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. U nusxa 1508–1509-yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 474 baytdan tashkil topgan. Asar “mafoiyun mafoiyun fauvlun” vaznida yozilgan. Xorazmiy shu asari bilan o‘zbek adabiyotida muhabbatnoma janriga, ya’ni noma janrining bir ko‘rinishiga asos soldi.

Muhabbatnoma janrida, odatda, oshiq bilan ma’shuqaning o‘zaro tuyg‘ulari, kayfiyati va orzu-istiklari tasvirlanadi. Asarda bosh qahramon ko‘pincha oshiq bo‘lib, u shoirning o‘z obrazidir. Bu turdagи asarlarda lirika va epik tasvir uyg‘unlashadi. Shoir o‘z oshiq obrazida jamiyatdagi ba’zi muammolarga munosabatini, ijtimoiy-falsafiy fikrlarini badiiy ifodalaydi.

Muhabbatnomalarning kompozitsiyasi odatda maktublar, ularga javoblar, g‘azal, fard, masnaviy va ruboilyardan tashkil topadi. Xorazmiyning bu asari ham shu an’anaviy tuzilishga ega: avval noma, so‘ngra g‘azal, undan keyin masnaviy keltirilgan. “Muhabbatnoma” oshiqning o‘z sevgilisiga yozgan she’riy maktublari shaklida yaratilgan. Unda jami o‘n bir noma mavjud bo‘lib, ularning sakkiztasi o‘zbek tilida, uchtasi esa fors tilida yozilgan.

“Muhabbatnoma” o‘zbek adabiyoti tarixida ilk sevgi maktublari shaklidagi lirik dostondir. U orqali epistolyar janrning ilk namunalari yuzaga chiqdi va keyingi ijodkorlarga ibrat bo‘ldi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida ham lirik maktublar an’anasi davom ettirildi. Shu nuqtai nazardan “Muhabbatnoma” asari nafaqat badiiy, balki tarixiy ahamiyatga ham ega.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarining tili xalq tiliga yaqin bo‘lib, uslubi sodda va ravondir. Asar yaratilganiga ko‘p asrlar o‘tganiga qaramay, uni bugungi kunda ham tushunish qiyin emas. Asarda ishlatilgan so‘zlarning ko‘pchiligi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham faol qo‘llaniladi. Masalan, tun, oy, ko‘ngil, til, eshik, suv, kishi, arslon, ov, tong kabi umumturkiy so‘zlar, parda, baxt, jamol, husn, chehra, dard,

¹ G’aniyeva, M. “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, Toshkent: O‘qituvchi, 2004.



dilbar kabi forsiy kelib chiqishdagi so‘zlar hamda ishq, g‘azal, qibla, muhabbat, vafo, umr, mehnat, fotiha, saodat kabi arabiylar so‘zlar bunga misol bo‘la oladi.

Shuningdek, asarda ochun (olam), qamuq (hamma), dag‘i (yana), ev (uy), uchmoq (jannat), qamuq (do‘zax) kabi qadimgi turkiy so‘zlar ham uchraydi, biroq bu kabi izoh talab qiluvchi so‘zlarning soni unchalik ko‘p emas. Matnda Kashmir, Saroy, Chin-Mochin, Sir, Misr, Iroq, Rum kabi joy nomlari — toponimlar ham uchraydi. Masalan, bugungi Sirdaryo daryosi asarda Sir deb tilga olingan.

Shoir sinonim so‘zlardan ustalik bilan foydalangan. U, masalan, ko‘rk (turkiy), husn (forsiy), jamol (arabiylar), chehra (forsiy) so‘zlarini bir-biriga ma’nodosh tarzda ishlatib, asarning badiiy ta’sirchanligini oshirgan. Xuddi shuningdek, diniy mavzularda ham Haq (arabiylar), Xudo (forsiy), Yazdon (forsiy), Tangri, Yaratuvchi (turkiy) kabi ilohiy kuchlarni ifodalovchi so‘zlardan foydalanib, o‘z e’tiqodiy qarashlarini yoritgan.

Bundan tashqari, ba’zi so‘zlar ko‘chma ma’noda sinonimik tarzda qo‘llangan. Masalan, davlat (arabiylar) so‘zi baxt (forsiy) bilan bir ma’noda kelgan. Asarda o‘lim (turkiy) va hayot (arabiylar), uchmoq (turkiy) va do‘zax (forsiy), dard (forsiy) va darmon (forsiy), jafo va vafo (arabiylar) kabi so‘zlar o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilib, tazod san’ati orqali ifoda kuchaytirilgan.

Xorazmiyning nodir asari — “Muhabbatnama”da shoir badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalangan. Asar Muhammad Xo‘jabekning bir bazmda ishtirok etayotgan tasviri bilan boshlanadi. O‘sha bazmda “Xusayniya” nomli kuy chalinadi va unga mos ravishda fors-tojik tilida yozilgan g‘azal kuylanadi:

Chi mohro‘y tu, ey sarvi sarafroz,
Ki memonad ba ro‘yat guldahan baz.

Bu g‘azaldan keyin “Bayoni voqein aytur” deb nomlangan qismida shoir asarni yozish sabablari haqida so‘z yuritadi va turkiy tilida bir g‘azal bitadi:

Yuzingda ko‘rdim, ey jon, bayram oyin,
Muning shukronasi qurban bo‘layin.

Mazkur baytda shoir tashbeh va nida san’atidan foydalangan: “jon” deb murojaat qilinishi yorni shirin jon sifatida tasvirlaydi. Shundan so‘ng masnaviy keltiriladi va unda Muhammad Xo‘jabekga ta’rif beriladi.



“Asarning birinchi nomasi” deb ataluvchi qismda esa lirik oshiq o‘z sevgilisiga murojaat qilib, uni go‘zallik bilan tasvirlaydi:

Ko‘ngul Shirin so‘zingg‘a bo‘ldi Farhod,

Ko‘zung Kashmir jodusig‘a ustod.

Bu baytda shoir talmeh san’atidan foydalangan. “Farhod”, “Shirin” va “Kashmir jodusi” kabi tarixiy va madaniy ishoralar orqali asarga ma’no chuqurligi va badiiylik bag‘ishlagan.

Xorazmiy o‘z baytlarida shakldosh so‘zlarni qo‘llash orqali badiiy adabiyotda aynan omonim so‘zlar hosilasi bo‘lgan tajnis san’atiga o‘ziga xos, betakror namunalar keltirgan. Ushbu noyob asar buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tomonidan yuqori baholanib, alohida e’tirof etilgan. Xususan, Navoiy o‘zining “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida o‘zbek tilida katta holni ifodalovchi maxsus meng so‘zi borligini aytib, fikrlarini “Muhabbatnoma”dan quyidagi baytni keltirish orqali asoslaydi:

Aningkim, al enginda meng yaratti,

Bo‘yi birla sochini teng yaratti.

Ushbu ma’lumotning o‘zi ham Xorazmiy “Muhabbatnoma” asari leksikasining xilma-xil va mavzu ko‘لامи jihatdan mukammaligini isbotlaydi. Asar leksikasining mukammal tadqiqini amalga oshirish esa o‘zbek tili taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma” asari o‘zbek adabiyotining nodir durdonalaridan biri hisoblanadi. Bu asar orqali Xorazmiy insoniy tuyg‘ularni chuqur va nozik ifodalashda yuqori mahorat ko‘rsatgan. Asar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yoshlar qalbida pok sevgi, sadoqat, axloqiy poklik kabi tuyg‘ularni uyg‘otishga xizmat qiladi. “Muhabbatnoma” Xorazmiyning adabiy salohiyatini namoyon qilgan asar bo‘lib, uning o‘zbek adabiy merosidagi o‘rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘aniyeva, M. “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
2. Abdug‘aniyev, B. “Xorazmiy va uning adabiy merosi”, Toshkent: Fan, 1998.
3. Karimov, S. “O‘zbek lirikasi va uning taraqqiyoti”, Toshkent: Universitet, 2001.